

ERTAKLARDA METAMORFOZ FENOMENI HAQIDA

Erkinova Charosxon Ruslan qizi¹

¹ O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Lingvistika: fransuz tili ixtisosligi

2-bosqich magistranti

E-mail : charosxonerkinova@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.02.2025

Revised: 08.02.2025

Accepted: 09.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

metamorfoz, tarjima
va o'zgarish, simvolizm,
adabiy tahlil, psixologik
tavsif, ijtimoiy
kommunikatsiya,
ma'naviy va ramziy
vositalar.

Ushbu maqolada metamorfoz tushunchasi hamda uning ertaklarda qo'llanilish jarayoni, tarjimashunoslikdagi ahamiyati shuningdek fransuz adabiyoti ertaklaridagi o'zgarishlarni o'rGANADI. Maqolada o'zbek, ingliz va fransuz tillaridagi shaxs yoki narsalarning majoziy o'zgarishi to'g'risida misollar bilan keltirilib, ularning madaniyatlararo va tarjimadagi roli tahlil qilinadi. Ertaklardagi metamorfoz jarayonini o'rGANISH va to'g'ri tarjima qilish adabiy tahlil tushunishni yaxshilashga va muloqotdagagi tushunmovchiliklarni oldini olishga yordam beradi.

KIRISH. Fransuz ertaklari, asrlar davomida o'zining rang-barangliklari va o'ziga xos fantastik elementlari bilan mashhur bo'lgan. Bu ertaklarda metaamorfoz ya'ni o'zgarish hodisasi, ko'plab murakkab va chuqur ma'nolarga ega bo'lib, asosiy qahramonlarning ichki va tashqi o'zgarishlarini ifodalaydi. Metamorfoz, yoki o'zgarish jarayoni, ertaklarda qahramonning hayotiy sinovlardan o'tib, o'zini topishi va o'zgarishi uchun muhim. Bu jarayon orqali qahramon yangi tajribalar orttiradi, ruhiy va jismoniy jihatdan o'sadi. Misol uchun, qurbaqaning shahzodaga aylanishi yoki oddiy qahramonning botirga aylanishi, o'quvchilarga o'zgarish va rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bu, bolalarga hayotda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish mumkinligini o'rgatadi.

Quyida metamorfoz hodisasining ahamiyati haqida ko'rib chiqamiz, fransuz ertaklarida metamorfoz odatda, qahramonlarning yangi shaklga o'tishi, yangi tajribalarga

kirishi yoki ruhiy jihatdan o'zgarishini ko'rsatadi. Bu hodisa ko'pincha individual o'sish va o'z-o'zini anglash bilan bog'liq, shuningdek, hayotiy saboqlarning muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek fransuz ertaklardan misollar keltirish mumkin. Masalan "La Belle et la Bête" ertagida oddiy oiladan chiqqan qiz lan'atlangan maxluqqa aylanib qolgan shahzodaga mehr berib unga g'amxo'rlik qilishga yordam beradi, qizning muhabbat tosh qalbli shahzodani ko'nglini erishitishga sabab bo'ladi. Oqibatda shahzoda o'z holiga qaytib u odam ko'rinishiga keladi va ular birga baxtli hayot kechirishadi. Bu ertakda aynan maxluqning qizga tushgan muhabbat orqali o'z holiga qaytishida metamorfoz hodisasini uchratish mumkin. Demak bu yerda muqaddas sevgining kuchi bu o'zgarish jarayonining naqadar ertaklarda shu kabi sevgi muhabbat to'g'risida ramziy belgilarni namoyon etish kerakligining ahamiyatini ko'rsatadi. Qizning muhabbat va fidoyiligi uni qutqaradi, natijada u shoh holatiga qaytadi. Bu hududda, o'zgarish faqat tashqi ko'rinishda emas, balki, ichki dunyodagi o'zgarishlarni ham ko'rsatadi.

"Beauty and the Beast" kabi ingliz ertaklarida ham ko'rish mumkinki ushbu klassik ertakda, Beast (qotil) o'zining ichki yaxshiligi va sevgi qobiliyatini, go'zal Beauty'ning sevgisi orqali kashf etadi. Suningdek bu jarayon, uning tashqi ko'rinishidan, haqiqiy ichki go'zallikning ko'rinishi va qahramonning o'zgarishi bilan yakunlanadi.

"The Little Mermaid" bu o'zining oyog'iga aylanish va insonlar hayotini tadqiq etish uchun jismoniy o'zgarishga ijozat beradi. Bu o'zgarish, uning ichki his-tuyg'ulari, sevgi va o'ziga xosligini anglaydigan jarayonning natijasi sifatida ko'rsatiladi. Demak ertaklarida metamorfoz hodisasi, nafaqat tashqi o'zgarishlarni, balki qahramonlarning ichki o'zgarishlarini ham aks ettiradi. Bu hodisa, o'z-o'zini anglash va o'sish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Ertaklar orqali taqdim etiladigan metamorfoz o'quvchilarga hayotiy saboqlarni, sevgining qudratini va o'zgarishlarning zarurligini tushuntirish uchun qiyofali shakl sifatida xizmat qiladi. Odatda, bu hikoyalarning zaruriy qismi bo'lib, ularni o'qish, nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham muhim taassurotlar qoldiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. Т.
2. Н. Д. Арутюнова МЕТАФОРА И ДИСКУРС (Теория метафоры. - М., 1990. - С. 5-32)
3. Осадчая Т.Г. Собственность в трансформируемой экономике России Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2000
4. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/metamorphosis>
5. <https://scholar.google.com/>